

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI TARIXIDA JUFT VA TAKROR SO‘ZLARNING TARAQQIYOTI VA RIVOJI

Mavlonov Shavkat

Buxoro Davlat Universiteti lingvistika (o‘zbek tili)
ta’lim yo‘nalishi 2-kurs magistranti

Yarashova Shahrizoda

Buxoro Davlat Universiteti lingvistika (o‘zbek tili)
ta’lim yo‘nalishi 2-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Ma’lumki, til taraqqiyoti davomida so‘zlar o‘z shakli va vazifalarini o‘zgartirib, takomillashib boradi. Ushbu maqolada o‘zbek tili tarixiy jarayonida juft va takror so‘zlarning rivojlanish bosqichlari va uning mumtoz adabiyotda qo‘llanilgan shakllari haqida kengroq ma’lumotga ega bo‘lish mumkin.

***Kalit so‘zlar:** o‘zbek tili tarixi, juft va takror so‘zlar, yozma yodgorliklar, xo‘jalik yozuvlari, sinonimlar.*

Qadimgi turkiy til yodnomalarini kuzatish davomida shunga guvoh bo‘lamizki, bu davr merosida qo‘llanuvchi so‘z va birikmalar nisbatan soda shaklda ekanligi bilan xarakterlanadi. Murakkab tarkibli so‘z, so‘z birikmasi va gaplar til tarixining keyingi davrlariga xos. Aniqrog‘i, til va jamiyat taraqqiyot topib borgani sari so‘zlarimiz ham shaklan ham mazmunan murakkablashib, takomillashib, rivojlanib borgan. Mazkur fikr tadqiqimiz asosi bo‘lgan juft va takror so‘zlarga ham taaluqli. Aytmoqchimizki, juft va takror so‘zlar qo‘shma so‘zlar kabi til tadrijiy rivoji asosida paydo bo‘la borgan. Buning dalilini bu kabi so‘zlarning til tarixiga oid nazariy manbalarda alohida izohlanmaganida ham ko‘rish mumkin, ya’ni o‘zbek tili tarixi bilan maxsus

shug‘ullanuvchi tadqiqotchilar, jumladan tilshunos olimlar G‘.Abdurahmonov, A.Rustamov, E.Fozilov, Sh.Shukurov, U.Tursunov, B.O‘rinboyev va b. tadqiqotchilar asarlarida juft va takror so‘zlar alohida sarlavha ostida yoritilmagan¹.

XI-XIV asr yozma yodgorliklari tili guvohlik berishicha² mazkur davrda murakkab so‘zlardan bas bitig (mirzaboshi) , ming baqi (mingboshi) , alim-birim (soliq-to‘lov), bas bitig (asosiy hujjat) , bos bitig (ishdan bo‘shatish hujjati) , bo‘yaiju (yuborilgan elchi) kabilar qo‘llangan. Mazkur so‘zlar ,asosan , rasmiy hujjatlar tilida ishlatilgan. Xuddi shu davrda “xo‘jalik yozuvlari” tilida, ya’ni xo‘jalik, dehqonchilik, irrigatsiyaga tegishli atamalar guruhiga murakkab so‘zlar sifatida amiri ob, sadri jahon, mulki xos, amloki shirkati kabi murakkab so‘zlar mavjudligi kuzatildi. Mazkur so‘zlar fors, arab tillari lug‘at qatlamidan o‘zlashgan bo‘lib, odatda, Buxoro hujjatlari tarkibida uchraydi.

Qadimgi o‘zbek tili yozma yodgorliklari orasida o‘zbek tili tarixi uchun eng muhim manbalardan biri Qarshi shahridan topilgan “Tafsir” asari bo‘lib, bu asar “Qur‘on”dagi ayrim suralarning izohli tarjimasini hisoblanadi. Asar til jihatdan mo‘g‘ullar davridagi o‘zbek tiliga to‘g‘ri keladi. “Tafsir” tilida XI-XIV asrlar o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlari aks etgan. Mazkur asarni turkologlar V.Bartold XI asrda, S.Malov XIII asrda , E.Tekishev XIII asrda, A.Borovkov XIV-XV asrda bitilganligini taxmin qiladilar. Har qanday holatda ham “Tafsir” asari tilimizning tarixiy elementlari haqida ma’lumot beruvchi ulkan xazina sanaladi.

“Tafsir” asari tarkibida ham ayrim juft so‘zlar , jumladan, qadash (qon-qarindosh), kend-ulus (shahar), ortaq-yosh (hamnafas) , ta’ni-dana (ekin) kabilar uchrashi aytiladi³.

XIV-XVI asr adabiyoti lug‘at tarkibini kuzatar ekanmiz, unda qo‘llangan juft so‘zlar, asosan , -i, -yu elementlari (bog‘lovchilari) bilan kelganligiga guvoh bo‘lamiz.

Masalan:

¹ Abdurahmonov G‘., Rustamov A., Qadimgi turkiy til – T.:O‘qituvchi, 1882.; Abdurahmonov G‘.,Shukurov Sh. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. –T.: O‘qituvchi, 1973.

² Tursunov U.,O‘rinboyev B. O‘zbek adabiy tili tarixi. – T.: O‘qituvchi , 1982. 97-100-b.

³ Tursunov U.,O‘rinboyev B. O‘zbek adabiy tili tarixi. – T.: O‘qituvchi , 1982. 101-b.

Oy-u kun yuzing bila lof ursalar, yo‘qdur ajab,
Tutarmen ko‘zki, ko‘rsam orazingni.

(*Lutfiy*)

Bu misralarda oy-u kun juft so‘zi qo‘llangan.

Alisher Navoiy asarlari tilida ham ba‘zi-ba‘zida juft va takror so‘zlar kuzatiladi.:
Soqiy chu ichib , menga tutar qo‘sh,
Tamshiy-tamshiy ani qilay no‘sh¹.

Bu misralarda tamshiy-tamshiy takror so‘zi qo‘llangan. Masalan, biror-bir suyuqlikni ichish harakatini ko‘rsatuvchi ichmoq fe‘li mavjud bo‘lib, Navoiy bu fe‘lning sipqormoq, tamshimoq kabi sinonimlaridan foydalanadi. Tamshiy-tamshiy ichish, sipqormoq fe‘liga ko‘ra zidlanadi. Bunda mayin-mayin, sekin-sekin mazasini tatib ichish nazarda tutiladi.

Alisher Navoiy yig‘lamoq so‘zining sinonimlari (yig‘lamsiramoq, bo‘xsamoq, yig‘lamoq, singramoq, siqtamoq, o‘kirmoq)ni sanar ekan, shu qatorda birinchi qismi takror so‘z sifatida keladigan hay-hay yig‘lamoq misolini ham aytib o‘tadi. Shu o‘rinda Navoiy yana bir takror so‘zni, ya‘ni kula-kula takror ravishdoshini ham she‘rida ishlatib ketganligiga guvoh bo‘lamiz. Misolni ko‘rsatamiz:

Ul oyki, kula-kula qirog‘latdi meni,
Yig‘latdi meni demayki, siqtatdi meni²

Alisher Navoiy hay-hay takror undov so‘zdan ham ko‘p foydalanganligi kuzatildi.
Masalan:

Ul mayni ichib yo‘lingda bas o‘lmishmen,
Hay-hay ne derdim, magarki mast bo‘lmishmen.

Ma‘lumki, hovuch-hovuch, etak-etak, qop-qop takror so‘zlari miqdoriy ko‘rsatkich anglatib belgi (miqdor belgisi) ni me‘yordan ortiqqligini ifoda etish uchun qo‘llaniladi. Muqimiy xuddi shu ma‘noda rasta-rasta takroriy so‘zini ishlatadi:

Xatingmu rasta-rasta,
Sabza yo rayhoni jannatmu.

¹ Alisher Navoiy , Tanlangan asarlar 3-tom – T ., 1988. 178-b.

² Alisher Navoiy , Tanlangan asarlar 3-tom – T ., 1988. 180-b.

Kichigu katta , xurd ila reza,

Dedi: yesin kelib otu nonin.

Parchada keltirilgan rasta-rasta juft so‘zi “miqdor” bilan birga qator-qator ma’nosida ya’ni yorining xati bir safda go‘zal ekanligini ta’kidlaydi.

Furqatning Muqimiy kabi tilimiz rivoji , sayqali uchun qilgan ishi shundaki, u shoir sifatida badiiy adabiy til va uslubni so‘zlashuv nutqiga yaqinlashtirishga harakat qildi. Furqat she’riyatida tilning turli hodisalari kabi juft va takror ko‘rinishlari ham ko‘o uchraydi. Furqat bu hodisalardan o‘rinli foydalana olgan. Ayrim misollarni tahlilga tortamiz:

1. Orazidin baytul-xazonim munavvar bo‘lmasa,

Eshitganlar ani holing bilurlar.

2. Kishikim ilm-u fandin boxabardurur,

Xaloyiqqa boqadru mo‘tabardurur.

Birinchi misolda baytul-xazon juft so‘zi (ot) qo‘llangan bo‘lsa, ikkinchi misoldagi har bir misrada juft so‘z (biri or, ikkinchisi sifat) keltirilganligini ko‘ramiz. Ikkinchi parcha tarkibidagi ilm-u fan, boqadr-u mo‘tabar juft so‘zlari –u, -yu bog‘lovchilari orqali yuzaga keltirilgan.

Xulosa. Eski turkiy til davrida juft takror so‘zlar, asosan, o‘z ma’nosida qo‘llangan. Keyingi davrlarga oid manbalarda esa juft so‘zlar umumlashma ma’nolar ham ifoda eta borgan. Takror so‘zlar ma’no kuchaytirish, ta’sirchanlikni oshirish, umuman, uslubiy vazifa bajarish uchun qo‘llanganligiga guvoh bo‘lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI(REFERENCES)

1. Абдурахмонов Ф., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Морфология ва синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973. 320 б.

2. Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. –Тошкент: Ўқитувчи, 1982. 168 б.

3. Абдурахмонов Ф. Қадимги туркий тил. –Тошкент: Ўқитувчи, 1989. 160 б.

4. Аюуб Г‘ulomovning ilmiy merosi (3-kitob). Toshkent-2007, 134 b.

5. Асадов Т. Сўз туркумлари тизимида равиш. Монография. –Тошкент: Мухаррир, 2010, 132 б.

6. Hojiyev A. Hozirgi o‘zbek tilida forma yasalishi. –Toshkent, “O‘qituvchi”, 1979, 79 b.